

## O'QITUVCHI FAOLIYATIDA UMUMIY VA KASBIY MADANIYATNING TUTGAN O'RNI.

*Sodiqov Hamid Maxmudovich*  
*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Jizzax, O'zbekiston*  
*e-mail: [hamid.sodiqov79@inbox.ru](mailto:hamid.sodiqov79@inbox.ru)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'qituvchilarning umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lishlari va ularning pedagogik faoliyatlarida tutgan o'rni haqida gap boradi.*

**Kalit so'zlar:** *o'qituvchi, madaniyat, faoliyat, kasb, mahorat, component, tajriba, qobiliyat, munosabat, dunyoqarash, jarayon.*

\*\*\*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются общая и профессиональная культура учителей и их роль в педагогической деятельности.*

**Ключевые слова:** *учитель, культура, деятельность, профессия, умение, компонент, опыт, установка, мировоззрение, процесс.*

\*\*\*

**Abstract:** *The article examines the general and professional culture of teachers and their role in teaching.*

**Keywords:** *teacher, culture, activity, profession, skill, component, experience, attitude, worldview, process.*

Barchamizga ham yaxshi ma'lumki O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan. Shunday ekan zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qilish bilan birga umumiy va kasbiy madaniyati ham yetarli darajada bo'lishi lozim.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etib kelingan.

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Buning uchu pedagog umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lishi ham muhim rol oynaydi.

Madaniyat atamasiga to'xtalar ekanmiz hozirgi vaqtda, umumiy holda insoning madaniyatni jamiyatni qayta qurish faoliyati va uning natijasidir deb tushuniladi.

**O'qituvchining umumiy madaniyati** deganda uning ijtimoiy-ahamiyatli tavsiflarining kasbiy faoliyatda amalga oshgandagi yetukligini ifodalaydi. Madaniyat tushunchasi esa shaxsning rivojlanishida, uning ruhiy kuchlari va qobiliyatlarining amaliy faoliyatida amalga oshish darajasi deb takidlashimiz mumkin. Pedagogning madaniy jihatdan rivojlanishi – bu uning bilimlari, ishonchlari, qobiliyatlari, xulqining muhit tomonidan rivojlanish jarayoni sanaladi.

**O'qituvchining kasbiy madaniyati** deganda uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati - tizimli ta'limdan iborat deb qarashimiz mumkin. O'qituvchining pedagogik madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasi va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, pedagogik tafakkurning rivojlanishi);

- pedagogik faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi;
- asosiy kasbiy pedagogik etika, ma'naviy harakter va odob madaniyati;
- o'zaro munosabat madaniyati;
- so'zlashuv madaniyati;
- tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar.

Yuqoridagi sanab o'tilgan komponentlar mujassam bo'lgan o'qituvchi albatta o'z kasbining egasi sifatida qarashimiz mumkin.

Huddi shuningdek pedagogik fikrlash madaniyatiga ham e'tibor qaratsak, pedagogik tahlil va sintez qobiliyatining rivojlanishi, fikrlashdagi tanqidiy kurash, mustaqillik, kenglik, epchillik, faollik, tezlik, kuzatuvchanlikning rivojlanishi, pedagogik xotira va boshqalar kirishini ko'rishimiz mumkin.

**Pedagogik fikrlash madaniyati** bo'lgan o'qituvchi tafakkuri-dunyoqarashining uch bosqichini o'z ichiga oladi:

- birinchi bosqichi metodologik dunyoqarashdagi pedagogik ishonchlar. Metodologik tafakkur o'qituvchiga o'zining kasbiy faoliyatiga to'g'ri qaray olishiga, gumanistik strategiyani ishlab chiqishiga imkon yaratadi.

Pedagogik tafakkurning ikkinchi bosqichi – taktikaviy dunyoqarash bo'lib, u o'qituvchiga pedagogik fikrlash, pedagogik jarayonning moddiylashuviga imkon yaratadi.

Uchinchi bosqichi umumiy pedagogik qonuniyatlarni, real pedagogik faoliyatning unikal hodisasi bo'lib hisoblangan bo'lim-bo'limlarga tadbiiq qilishda namoyon bo'ladi. Bu tezkor fikrlashdir.

Pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-axloq bo'limi muhim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi pedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini harakterlaydi, u esa pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining nishonasi, pedagogik

xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat. Ma'naviy madaniyat yetuk bilimlarning nazariy darajasi holatida shakllanuvchi axloqiy bilimni o'z ichiga oladi. Bu **kasbiy pedagogik etikadan** iborat.

**Pedagogik aloqa qilish madaniyati** suhbatdoshni eshitish va eshita olishda, savollar bera olishda, aloqani amalga oshirib boshqani tushuna olishda, muloqotning kiyin holatlarini ko'ra olish va odamlardagi ta'sir holatini tug'ri tahlil qila bilishda, muloqotga tayyorlanish va muloqotga bo'lgan xohishlarda ko'rinadi.

**Pedagog uchun eng zaruri nutq madaniyatini** egallashdir. O'qituvchining nutqi kundan-kunga o'quvchilar uchun ibratli bo'lib borib ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning grammatik to'g'riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazlilik, nutq texnikasini egallanganligi o'qituvchining turli xil kasbiy masalalarni sifatli echishiga imkon beradi.

Pedagogning tashqi ko'rinish madaniyati, uning tashqi ko'rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlik, tartibli, odobli, bosiqlik va o'zini-o'zi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki o'qituvchilik kasbida faoliyat olib borayotgan shaxslarda umumiy va kasbiy madaniyatning yetarli darajada bo'lishi eng muhim jihatlardan biri ekanligini .

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Adullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat) Darslik. Toshkent 2019 y.

2. Содиқов Ҳ.М. Бўлажак ўқитувчиларнинг мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг самарали йўллари. // Халқ таълими журнали. (2-сон) – Тошкент, 2020. 2-сон.

3. Sodiqov Kh. Development of Communicative and Speech Culture in the process of professional development of future teachers. // International Conference. Science, research, development philology, sociology and culturology №5 – Берлин, 2018.

4. Содиқов Ҳ.М. Педагогик фаолиятнинг муваффақияти педагогларнинг коммуникатив нутқ маданиятига боғлиқлигидадир. // Бошланғич таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. -Жиззах, 2019.

5. Содиқов Ҳ.М. Ўқитувчи фаолиятида мулоқот маданиятининг ўрни. // “Тафаккур ва талқин” илмий тўплам. –Тошкент, 2016.

6. Содиқов Ҳ.М. Ахборот-коммуникацион технологиялардан тўғри фойдаланиш – давр талаби. «Фан таълим ва амалиёт» мажмуасининг долзарб муаммолари. ЖДПИ профессор-ўқитувчилари ва иқтидорли талабаларининг илмий мақолалари тўплами. 13-чиқиши. –Тошкент, 2019.

7. Содиқов Ҳ.М., Содиқова Д.Р. Педагогик маҳоратни эгаллаш йўллари. // Международная научная конференция “Актуальные вызовы современной науки”. -Украина, 2017.

8. Sodiqov, H. (2020). Use of mass educational measures in upbringing of harmoniously developed generation. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

9. Sodiqov, H. (2020). The educational significance of hadiths in human spiritual maturity. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

10. Sodiqov, H. (2020). Abu Nasr Faroobi's views on education. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

11. Sodiqov, H. (2020). General pedagogical views of Abu Ali ibn Sina. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

12. Sodiqov, H. (2020). Specific aspects of the organization of independent education. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

13. Sodiqov, H. (2020). DUXOVNO-NRAVSTVENNYE PRINTSIPY HARMONII OBshchESTVA I SEMI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-12.

14. Sodiqov, H. (2020). The role of toys in shaping the creative thinking of primary school students. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

15. Sodiqov, H. (2020). Family, school cooperation in the upbringing of primary school students. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

16. Sodiqova, D. (2019). PECULIARITIES OF FORMING CREATIVE ATTITUDE TO THOUGHTS OF STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)*.

17. Sodiqova, D. (2020). Buyuk allomalarimiz asarlarida oilada bola tarbiyasining ahamiyati haqida qarashlari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

18. Sodiqova, D. (2020). Талабаларда ижодий муносабатлар тафаккурини шакллантиришда тушунчалардан фойдаланиш. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

19. Sodiqov, H. (2020). MEETING OF FUTURE TEACHERS DEVELOPING A CULTURE EFFECTIVE WAYS. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

20. Sodiqov, H. (2020). DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE AND SPEECH CULTURE IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

21. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

22. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16*.

23. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).

24. Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72

25. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортикова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.